**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**AXADQULOV XABIBULLA ABURUYKULOVICH**

# MAXSUSLIKKA EGA BO'LGAN BIR O'LCHOVLI AKSLANTIRISHLAR RENORMALIZATSIYALARINING ASIMPTOTIK HOLATI VA QO'SHMALARI

**01.01.01– Matematik analiz**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO'YICHA FAN DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent–2025**

**UDK: 517.9**

**Fizika va matematika fanlari bo'yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наука (DSc) по физико-математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of science (DSc) on physical-mathematical sciences**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.FM.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**AXADQULOV XABIBULLA ABURUYKULOVICH**

# MAXSUSLIKKA EGA BO'LGAN BIR O'LCHOVLI AKSLANTIRISHLAR RENORMALIZATSIYALARINING ASIMPTOTIK HOLATI VA QO'SHMALARI

**01.01.01– Matematik analiz**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO'YICHA FAN DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent–2025**

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/FM743 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti va Utara Malayziya Universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash vebsahifasi (http://kengash.mathinst.uz) va "ZiyoNet" ta'lim axborot tarmog'ida (http:www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

| | |
|---|---|
| **Ilmiy rahbar:** | **Djalilov Axtam Abduraxmonovich**<br>fizika-matematika fanlari doktori, professor |
| **Rasmiy opponentlar:** | **Roziqov Utkir Abdulloevich**<br>fizika-matematika fanlari doktori, akademik |
| | **Muxamedov Farrux Maksutovich**<br>fizika-matematika fanlari doktori, professor |
| | **Yaxshiboev Maxmadiyor Umirovich**<br>fizika-matematika fanlari doktori, dotsent |
| **Yetakchi tashkilot:** | **Namangan Davlat Universiteti** |

Dissertatsiya ximoyasi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi DSc.03/30.12.2019.FM.01.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «29» may soat «14°» dagi majlisda bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet kuchasi, 9-uy. Tel.: (+99871) 207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

Doktorlik dissertatsiyasi bilan Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (73-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet kuchasi, 9-uy. Tel.: (+99871) 207-91-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «08» 05 kuni tarqatildi. (2025-yil «08» 05 dagi «2»- raqamli reestr bayonnomasi).

**A. Sadullayev**
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi
f.-m.f.d., akademik

**R.M. Jo'rayev**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi f.-m.f.f.d., PhD

**R. N. Ganixodjayev**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi
f.-m.f.d., professor

## KIRISh (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda matematika va fizikaning turli sohalarida olib borilayotgan ilmiy va amaliy tadqiqotlar orasida bir o‘lchovli dinamik sistemalar, xususan, interval akslantirishlari va aylana akslantirishlarini o’rganish va amaliyotda qo’llash yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida aylana diffeomorfizmlarining sinish tipidagi maxsuslikka ega aylana gomeomrfizmlari yo‘nalishidagi aksariyat ilmiy ishlar renormalizatsiyaga tegishli bo‘lishini hisobga olsak, taassufki uning *P*-gomeomorfizmlar sinfi deb ataluvchi bo‘limi ko‘plab tadbiqiy masalalarni amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan matematik analiz, funksional analiz va dinamik sistemalar nazariyasini o’rganish bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, fan va texnikada undan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda, hozirgi kunda aylana akslatirishlar nazariyasini bitta sinishga aylana diffeomorfizmining renormalizatsiyalari Myobius akslantirishlarining ikki parametrli oilasiga qanday tezlik bilan yaqinlashishni o‘rganishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada aylana akslantirishlari eng ko’p qo’llaniladigan sohalardan biri bo‘lishi bilan bir qatorda, egri chiziqli akslatirishlar nazariyasidagi qo’shma gomeomorfizmlarning silliqligiga ta’luqli bo’lgan natijalaridan keng foydalanib, maydonning uzoq muddatdagi xatti-harakatlari bashoratlar qilinib, pirovardida ko‘plam ilmiy izlanishlarda umumlashgan interval almashinuvchi asklanitishlarining qattiqlik masalalarini yechishga alohida e’tibor berilmoqda.

Respublikamizda fundamental fanlarning ilmiy va amaliy tadbiqiga ega bo‘lgan yo’nalishlariga alohida e’tibor berilibgina qolmay, fanlar akademiyasi tashabbusi bilan “Puankare tomonidan kiritilgan kombinatorika nazariyasi bilan bog‘liq burish sonining muhim xossalari”ni o‘rganishga laborator sharoitlar yaratilmoqda, hamda burish sonlarining uzluksiz kasrga yoyilmasi va dinamik bo‘linishlar haqidagi tushunchalarni umumlashtirish yuzasidan keng qamrovli chora tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. “Differensial topologiya, kompleks o‘zgaruvchili funksiyalar nazariyasi” fanlarining ustuvor yo‘nalishlarida, hamda dinamik sistemalar nazariyasi, kompleks analizning zamonaviy muammoalari, algebra va uning tadbiqlari kabi ilmiy sohalarida xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish matematika fanining asosiy vazifalar va faoliyat yo‘nalishlari[1] bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, Danjua tengsizliklari hamda dinamik bo‘linish intervallari uzunliklari nisbati uchun universal baholar olingan holda, yuqoridagiga o‘xshash dinamik bo‘linish intervallari kasr buzilishi (ratio distortion) hamda aylanib kelgan kasr buzilishlari (cross-ratio distortion) uchun aniq baholarni talab qiladigan integrallashgan yechimlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi

---

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasidagi ta`lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708-son qarori

to‘g‘risida”gi farmoni, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789 son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 7-maydagi PQ-4708 son “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertasiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustivor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha halqaro ilmiy tadqiqotlar sharhi[2].** Dinamik sistemalar va ularning tadbiqlariga doir ilmiy tadqiqotlar yetakchi xorijiy davlatlardagi oliy ta’lim muassasalari va nufuzli ilmiy tadqiqot markazlarida faol tarzda olib borilmoqda, jumladan Ilg‘or tadqiqotlar markazi (IAS)- Prinston, (AQSh), Tatbiqiy fizika instituti (FAP)- Gyote universiteti, (Germaniya), Dinamik sistemalar va o‘z-o‘zini tashkil etish uchun Maks Plank instituti- Gyottingen, (Germaniya), Nochiziqli va murakkab tizimlar markazi (CENOLIC)- Turin universiteti, (Italiya), Halqaro nazariy fizika markazi (ICTP)- Triest, (Italiya), Filds nomidagi matematika fanlari tadqiqot instituti- Toronto, (Kanada), Nyuton nomidagi matematika fanlari instituti Kembrij universiteti, (Buyuk Britaniya), Anri Puankare instituti- Parij, (Fransiya), Malayziya milliy universiteti (UKM) fan va texnologiyalar fakulteti, matematika bo‘limi (Malayziya), Shimoliy Malayziya universiteti (UUM) matematika bo‘limi (Malayziya) va boshqalar.

So‘nggi vaqtlarda dinamik sistemalar sohasida, jumladan, bir o‘lchovli dinamik sistemalar renormalizatsiyalarning asimptotik tabiati, qattiqlik muammolari hamda qo‘shma akslantirishning xossalari bo‘yicha dunyo miqyosida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda bir nechta e’tiborga loyiq natijalar olindi. Ulardan ba’zi asosiylari quyidagilar:

Fransiyaning Orsay universitetidan Selim Gazuani tomonidan olingan muhim natija: ikkita nuqtada sinishga ega bo‘lgan bo‘lakli affin aylana akslantirishi Lebeg o‘lchovi bo‘yicha Mors-Smeyl tabiatiga ega bo‘lishini ko‘rsatdi. Shveysariyaning Syurix universitetidan Frank Trujillo tomonidan davriy nuqtalarga ega bo‘lmagan bir nechta kritik nuqtali $C^3$ silliq aylana akslantirishining yagona invariant o‘lchovining Xausdorf o‘lchami uchun aniq chegaralar o‘rnatildi. Fransiyaning Orsay universiteti vakili Korinna Ulchigrai tomonidan jenusi ikki bo‘lgan sirtlardagi akslantirishlar uchun qattiqlik muammosi yechilgan bo‘lib, bu natija aylana diffeomorfizmlari uchun Erman teoremasini yuqori tartibli akslantirishlar uchun umumlashtiradi. Bu natija tordagi oqimlar uchun ham muhim hisoblanadi. AQShning Texas universiteti vakili Sasha Koshich tomonidan qatiqlik mauammosiga muhim yechim ko‘rsatilgan: deyarli

[2] Dissertasiya mavzusiga doir xorijiy ilmiy tadqiqotlar tahlili quyidagi manbalarga asosan ajratilgan: Discrete and Continuous Dynamical Systems https://www.aimsciences.org/DCDS, Ergodic Theory and Dynamical System https://tinyurl.com/4wxkt9h4, Nonlinearity https://iopscience.iop.org/journal/0951-7715, Differential Equations and Dynamical Systems https://link.springer.com/journal/12591 .

barcha irratsional burish sonlari uchun sinish nuqtaga ega bo‘lgan ikkita aylana diffeomorfizmlari $C^1$ silliq qo‘shma gomeomorfizmga ega bo‘lib, birorta ham $\alpha > 0$ uchun $C^{1+\alpha}$ silliq qo‘shma gomeomorfizmga ega bo‘lmasligi isbotlangan. Kanadaning Toronto universiteti professori Konstantin Xanin $(0, 1)$ oraliqdagi deyarli barcha irratsional $\rho$ burish sonlari uchun bitta nuqtada sinishga ega va burish soni $\rho$ bo‘lgan aylana diffeomorfizm-lari invariant o‘lchovining Xausdorf o‘lchami nol bo‘lishi isbotlangan. Toshkent shahridagi Turin Politexnika universiteti professori Axtam Djalilov tomonidan bo‘lakli silliq aylana gomeomorfizmlarining Rouzi-Vich renormalizatsiyalari Myobius funksiyalariga yaqinlashishi isbotlangan. Yuqorida keltirilgan natijalar birgalikda bir o‘lchovli dinamik sistemalarning asimptotik tabiatini va xossalarini tushunishga yordam beradi hamda bu sohada akslantirishning renormalizatsiyasi, qattiqligi va boshqa jihatlarini yoritadi.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Anri Puankare dinamik sistemalar sohasi kashfiyotchilaridan biri hisoblanib, “Osmon mexanikasining yangi usullari” (1892-1899) va “Osmon mexanikasi bo‘yicha ma’ruzalar” (1905-1910) nomli ilmiy risolalar muallifidir. Mazkur risolalarda “uch jism” muammosi yechimini hamda traektoriyaning qaytishi haqidagi Puankare teoremasini keltirilgan. Aleksandr Lyapunovning approksimatsiya usullari (1899 yil) oddiy differensial tenglamalar turg‘unligini boholashlarning asosi bo‘lib xizmat qildi. Jorj Devid Birkgof 1913 yilda Puankarening “Oxirgi geometrik teorema” sini isbotladi hamda 1927 va 1931 yillarda statistik mexanika muammolarini yechish orqali dinamik sistemalar sohasiga va ergodiklik nazariyasi rivojiga katta hissa qo‘shdi. Stiven Smeyl fanga Smeyl taqasi tushunchasini kiritdi, va bu yo‘nalishda tadqiqotlar olib bordi, boshqalarni ham ilhomlantiradigan dasturlar taklif qildi. 1964 yilda Aleksandr Nikolaevich Sharkovskiy, agar diskret dinamik sistema uch davrli davriy traektoriyaga ega bo‘lsa, u holda bu sistema barcha davrli davriy traetoriyaga ega bo‘lishi haqida o‘zining Sharkovskiy teoremasini isbotladi.

Parri (1964) tomonidan interval akslantirishlar bo‘lakli chiziqli akslantirishlarga kombinator ekvivalent (yoki yarim qo‘shma) bo‘lishi isbotlangan. Bundan tashqari, o‘sha yilning o‘zida, Sharkovskiy o‘zining mashhur teoremasini e’lon qildi: davri uch bo‘lgan davriy nuqtaning mavjudligidan ixtiyoriy tartibli davriy nuqtaning mavjud bo‘lishi kelib chiqadi. Keyinchalik, Metropolis va Stayn (1973) lar tomonidan hamda Milnor va Terston (1977) larning mashhur qo‘lyozmalarida ikkita bo‘lakli monoton va uzluksiz interval aslantirishlari kombinator ekvivalent bo‘lishi uchun ularning egilish nuqtalari traektoriyalari bir xil tartibga ega bo‘lishi zarur va yetarli ekanligi isbotlangan. Puankare esa davriy nuqtaga ega bo‘lmagan har qanday aylana akslantirishlari chiziqli burishga yarim qo‘shma ekanligini ko‘rsatdi. Danjua (1932) o‘z teoremasida, agar gomeomorfizm va uning teskarisi silliq bo‘lsa, u holda bu yarim qo‘shma aslida qo‘shma gomeomorfizmligini isbotladi.

Danjua teoremasida ushbu $K_n = \max_{\xi} |\log(f^{q_n}(\xi))'|$ ko‘rinishda aniqlangan Danjua ko‘paytmasini aniq baholash muhim rol o‘ynaydi, bu yerda $f'(\xi)$, - $f$ funksiyaning $\xi$ nuqtadagi hosilasini, $q_n$ esa $f$ ning birinchi qaytish vaqtini bildiradi.

Burish soni $\rho$ irratsional, yo‘nalishini saqlovchi shunday $C^1$ -silliq $f$ diffeomorfizmni qaraymizki, $\log f'$ ning variatsiyasi chegaralangan bo‘lsin. Bunday diffeomorfizmlar uchun Danjua tomonidan ushbu $K_n \le v$ tengsizlik isbotlangan, bu yerda $v = \operatorname{var}_{S^1} \log f'$. Keyinchalik bu natija Kasnelson & Ornsteyn, Sinay & Xanin, Xanin & Teplinskiylar tomonidan kengaytirildi. Ularning ishlarda, agar $f$ aylana diffeomorfizmi $C^{2+\varepsilon}(S^1)$, $\varepsilon > 0$ sinfga tegishli bo‘lib, burish soni $\rho$ irratsional bo‘lsa, u holda $K_n$ ning eksponensail ravishda nolga intilishi isbotlangan. Danjua teoremasining o‘rinli bo‘lishi, aylana gomeomorfizmi va chiziqli burishni orasidagi qo‘shma akslantirishning mavjud bo‘lishini kafolatlaydi. Shu nuqtai nazardan, tabiiy savol tug‘iladi: *qo‘shma akslantirish silliq bo‘lishi uchun qanday shartlar mavjud?*

Dastlabki lokal natija Arnold tomonidan isbotlangan. Bu natija Mozer tomonidan kengaytirilgan. 1970-yillar oxirida Erman tomonidan diffeomorfizmning chiziqli burishga yaqinligini talab qilmaydigan global natija olingan. Keyinchalik, Yokkoz esa Erman teoremasini deyarli barcha irratsional burish sonlariga kengaytirdi. 1980-yillarning oxirida Erman nazariyasiga ikkita o‘ziga xos yondashuv paydo bo‘ldi. Katsnelson & Ornsteyn, Xanin & Sinay ishlarida bu yondashuvlarni rivojlantirdi hamda kengroq sinfdagi aylana diffeomorfizmlari uchun Yokkoz teoremasini kengaytirdi. Ular tomonidan, $C^{2+\varepsilon}(S^1)$, $\varepsilon > 0$ sinfdagi aylana gomeomorfizmi va chiziqli burish orasidagi qo‘shma gomeomorfizm hech bo‘lmaganda $C^1$ silliq bo‘lishi isbotlangan.

Erman aylana diffeomorfizmlari va chiziqli burish orasidagi qo‘shia akslantirishning silliqligi uchun ba’zi kriteriyalarni berdi. Bu kriteriyalar qo‘shma gomeomorfizmning $\beta$ -Gyolder uzluksizligi, absolyut uzluksizligi, Lipshis uzluksizligi uchun shartlarni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, qo‘shma akslantirishning silliqligi uchun zaruriy va yetarli shartlar isbotlangan.

Aylana diffeomorfizmlarining tabiiy umumlashmasi bu sinish tipidagi maxsuslikka ega aylana gomeomrfizmlari bo‘lib, dastlab Erman tomonidan kiritilgan va bu *P*-gomeomorfizmlar sinfi deb ataladi. Dastlab, Erman ikkita sinish nuqtasiga ega bo‘lakli chiziqli aylana gomeomorfizmlari va chiziqli burish orasidagi qo‘shia gomeomorfizmning singulyar bo‘lishini isbotladi. Keyinchalik uning natijasini Djalilov & Xanin, Djalilov, Akin & Temir, Djalilov & Luis, Djalilov, Mayer & Safarovlar ishlarida umumiy *P*-gomeomorfizmlar uchun kengaytirdilar.

Aylana diffeomorfizmlarining yana bir muhim jihati ularning renormalizatsiyasi tabiatidir. Bu yo‘nalishdagi dastlabki natija 90-yillarning boshlarida Xanin & Vul tomonidan olingan. Ular bitta sinishga aylana diffeomorfizmining renormalizatsiyalari Myobius akslantirishlarining ikki parametrli oilasiga eksponensial tezlik bilan yaqinlashishini isbotladilar. Xanin & Xemelev, Xanin & Teplinskiy, Xanin & Yampolskiy, Teplinskiy ishlarida Myobus akslantirishlarni o‘rganish natijasida akslantirishlar fazoning ma’lum bir sohasida renormalizatsiya operatori kritik burish uchun Lendford tomonidan taxmin qilingan xossalarga o‘xshash qat’iy giperbolik xossalarga ega bo‘ladi.

2014-yilda Xanin & Koshich ikkita aylana diffeomorfizmining renormalizatsiyasi bir-biriga yaqinlashishini isbotladi.

Burish soni Diofant shartini fanoatlantiruvchi alana gomeomorfizmlari renormalizatsiyalarining yaqinlashishi, qattiqlik muammosi deb ataladigan ular orasidagi qo‘shma akslantirishning silliqligini ta’minlaydi. Sinish tipidagi maxsuslikka ega hol uchun, qattiqlik masalasiga doir dastlabki natijalar mumkin bo‘lgan irratsional burish sonlari to‘plami Lebeg o‘lchovi nolga teng $C^{2+\alpha}$ silliq aylana diffeomorfizmlari uchun Xanin & Xmelevlar hamda Xanin & Teplinskiylar tomonidan olingan. Bu yo‘nalishdagi eng ajoyib natijalar Xanin & Koshich, Xanin, Koshich & Mazzeolar ishlarida deyarli barcha irratsional burish sonlari uchun isbotlangan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi va ilmiy tadqiqot institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.**

Dissertatsiya tadqiqoti Mirzo Ulug’bek nomidagi O’zbekiston Milliy Universiteti “Matematik analiz” kafedrasi ilmiy tadqiqot rejasi doirasida hamda Shimoliy Malayziya Universitetining (UUM) FRGS, S/O 13558 “Solutions of nonlinear Volterra-Hammerstein integral equations by combination of multidimensional fixed point and homotopy perturbation methods (MFPM-HPM)” (2016-2018), FRGS S/O 14192 ”Solutions of nonlinear fractional differential equations via a generalized fixed point method and homotopy analysis method” (2019-2020) mavzularidagi ilmiy tadqiqot loyihalari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqot ishining maqsadi** sinish tipidagi maxsuslikka ega bo’lgan aylana diffeomorfizmlari o’rtasidagi qo‘shma gomeomorfizmlarning silliqligini, renormalizatsiyasini va qattiqlik xarakteristikalarini tadqiq qilishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

Katznelson va Ornsteyn shartlarini qanoatlantiruvchi aylana diffeomorfizmlari uchun kuchaytirilgan Danjua tengsizligini olish;

chegaralanmagan tipli burish soniga ega aylana diffeomorfizmlari va chiziqli burish o’rtasidagi qo‘shma gomeomorfizmning absolyut uzluksizligini o’rganish;

cheskiz ko‘p sondagi sinishga ega bo’lgan ikkita aylana gomeomorfizmlari orasidagi qo‘shma gomeomorfizmining turli darajadagi silliqliklari uchun zarur va yetarli shartlar olish;

ikkitadan sinish nuqtalariga ega bo‘lib xar xil sinish kattaliklariga ega ikkita aylana gomeomorfizmlari orasidagi qo‘shma gomeomorfizmning singulyar funksiyasi bo’lishi ko’rsatish;

bitta sinish nuqtasiga ega bo’lgan aylana gomeomorfizmlari renormalizatsiyalarining Myobius akslantirishlari bilan approksimatsiyasini o‘rganish;

har biri bir xil kattalikdagi bittadan sinishga va bir xil burish soniga ega ikkita aylana gomeomorfizmlari renormalizatsiyalarining yaqinlashishini o’rganish;

har biri bir xil kattalikdagi bittadan sinishga va chegaralangan tipli bir xil burish soniga ega bo’lgan ikkita aylana gomeomorfizmlari orasidagi qo‘shma gomeomorfizmning $C^1$ silliqligini o‘rganish.

**Tadqiqotning ob’ekti.** Aylana gomeomorfizmi va chiziqli burish orasidagi qo‘shma akslantirish, maxsuslikka ega ikkita aylana gomeomrfizmlari orasidagi qo‘shma akslantirish, renormalizatsiya tabiati.

**Tadqiqotning predmeti**. Aylana diffeomorfizmlari, sinish tipidagi maxsusikka ega aylana gomeomorfizmlari.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishida kasr buzilishi (ratio distortion), aylanib kelgan kasr buzilishi (cross-ratio distortion), martingal va renormalizatsiyalar yaqinlashishi usullari qo‘llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Katznelson va Ornsteyn shartlarini qanoatlantiruvchi aylana diffeomorfizmlari uchun kuchaytirilgan Danjua tengsizligi olingan;

chegaralanmagan tipli burish soniga ega aylana diffeomorfizmlari va chiziqli burish orasidagi qo‘shma gomeomorfizm va uning teskarisi absolyut uzluksiz va hosilalari esa $L_2$ fazodan bo’lishi isbotlangan;

cheksiz ko‘p sondagi sinishga ega ikkita aylana gomeomorfizmlari orasidagi qo‘shma gomeomorfizmining Gyolder sinfidan bo’lishi, absolyut uzluksiz bo’lishi va $C^1$ silliq bo’lishi uchun zarur va yetarli shartlar topilgan;

ikkitadan sinish nuqtalariga ega bo‘lib xar xil sinish kattaliklariga ega ikkita aylana gomeomorfizmlari orasidagi qo‘shma gomeomorfizmning singulyar funksiyasi bo’lishi ko’rsatilgan;

bitta sinish nuqtasiga ega bo’lgan aylana gomeomorfizmlari renormalizatsiyalarining Myobius akslantirishlari bilan approksimatsiya qilinishi ko‘rsatilgan;

har biri bir xil kattalikdagi bittadan sinishga va bir xil burish soniga ega ikkita aylana gomeomorfizmlari renormalizatsiyalarining yaqinlashishi Koshi alomatini qo‘llash orqali isbotlangan;

har biri bir xil kattalikdagi bittadan sinishga va chegaralangan tipli bir xil burish soniga ega bo’lgan ikkita aylana gomeomorfizmlari orasidagi qo‘shma gomeomorfizmning $C^1$ silliq funksiya bo’lishi ko’rsatilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

danjua tengsizligining boshqa kuchaytirilgan ko‘rinishlari umumlashgan interval almashtirish akslantirishlari uchun kengaytirilgan;

zygmund shartini qanoatlantiruvchi aylana gomemorfizmlari uchun kasr buzilishi (ratio distortion), aylanib kelgan kasr buzilishlarini (cross-ratio distortion) baholash uchun yaratilgan yangi usullar umumlashgan interval almashtirish akslantirishlari tatbiq qilingan;

qo‘shma gomeomorfizmlar silliqligi uchun topilgan yangi kriteriyalar interval akslantirishlari qo‘shmalari uchun ishlatilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** matematik analiz, funksional analiz, ehtimollar nazariyasi va garmonik analiz usullaridan, teoremalaridan foydalanilganligi, hamda matematik mulohazalarning va isbotlarning qat’iyligi bilan tasdiqlanadi. Bundan tashqari, dissertatsiyada olingan natijalar yuqori impakt-faktorga ega nufuzli ilmiy jurnallarda chop etilganligi hamda Xalqaro va Respublika konfrensiyalarida ma’ruza qilinganligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, bir o’lchovli dinamik sistemalar nazariyasida quyi silliqlikka ega bo’lgan gomeomorfizmlar qo‘shmalarini o‘rganishda qo‘llanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati bir va ko’p o‘lchovli dinamik sistemalarning kvazi davriyligini o‘rganish va tadqiq etishda asos sifatida xizmat qilishi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Maxsuslikka ega bo‘lgan bir o‘lchovli akslantirishlar renormalizatsiyalarining asimptotik holati va qo‘shmalari bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

bo’lakli silliq aylana akslantirishlarining qattiqlik muammosini yechish usullaridan Geran Khas S/O 1777 raqamli “Nochiziqli singulyar toq ikkilik tenglamalar uchun hosilasiz kuazi nyuton usuli” mavzusidagi fundamental loyihada singulyar dual fuzzy nochiziqli tenglamalar yechimlarining mavjudligini isbotlashda foydalanilgan (Shimoliy Malayziya Universitetining (UUM) 2024-yil 12-dekabrdagi ma’lumotnomasi). Ilmiy natijaning qo’llanilishi nochiziqli singulyar toq ikkilik tenglamalari yordamida tuzilgan nochiziqli asklantirishlar uchun qo’zg’almas nuqtalarning mavjudligini isbotlash imkonini bergan;

Zygmund shartini qanoatlantiruvchi aylana gomemorfizmlari uchun kasr buzilishi (ratio distortion), aylanib kelgan kasr buzilishlarini (cross-ratio distortion) baholash usullaridan DIP-2017-011 raqamli “Zygmund sinfidagi bo’lakli silliq aylana diffeomorfizmlari uchun qattiqlik muammosi” mavzusidagi fundamental loyihada umumlashgan interval almashinuvchi asklanitishlarining qattiqlik masalalarini yechishda foydalanilgan (Malayziya Milliy Universitetining (UKM) 2024-yil 12-dekabrdagi ma’lumotnomasi). Ilmiy natijaning qo’llanilishi umumlashgan interval almashinuvchi asklanitishlarning Rouzy-Veech renormalizatiyalari yaqinlashishini isbotlash imkonini bergan;

aylana diffeomorfizmlar renormalizatsiyalarini baholash usullaridan DIP-2014-034 raqamli “Konusga ta’luqli metrik fazolarda qozg’almas nuqtalar nazariyasi” mavzusidagi, UKM-MI-OUP-2011(13-00-09-001) raqamli “Matematik tahlil va modellashtirish” mavzusidagi fundamental loyihalarda konusga ta’luqli metrik fazolardagi nochiziqli akslantirishlarning qo’zg’almas nuqtalari turg’un bo’lishini ko’rsatishda foydalanilgan (Malayziya Milliy Universitetining (UKM) 2024-yil 12-dekabrdagi ma’lumotnomasi). Ilmiy natijaning qo’llanilishi Pikard iteratsiyalarining yaqinlashishini isbotlash imkonini bergan;

sinishga ega bo’lgan aylana gomeomorfizmlarining qo’shma gomeomorfizmlarini o’rganish usullari xorijiy ilmiy jurnallardagi maqolalarda (Communications in Mathematical Physics 379(1), 2020; Annales de l'Institut Henri Poincaré (C) Analyse Non Linéaire 35(7), 2018; Journal of Statistical Physics 183(2), 2021; Advances in Mathematics 441, 2024; Ergodic Theory and Dynamical Systems 39(9), 2019) foydalanilgan. Ilmiy natijalarning qo’llanilishi qattiqlik muammosini yechish imkoni bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya natijalari to’rtta xalqaro konferensiyalarda ma’ruzalar qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan va beshta ilmiy seminarlarida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Xorijiy ilmiy jurnallarda jami 20 ta ilmiy maqola chop etilgan bo‘lib, ularning barchasi dissertatsiya mavzusiga tegishli bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan. 1 ta maqola esa chop etilish uchun jurnalga yuborilgan, maqolaning to’liq shakli ArXiv veb sahifasiga joylangan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish qismi, oltita bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va 7 ta shakldan tashkil topgan. Dissertatsiya ishi 213 sahifan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertasiya kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan. Bundan tashqari, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, ob’ekti va predmeti tavsiflangan. Dissertatsiya ishida tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari batafsil bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, kirish qismida tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

**1-bobning asosiy natijalari.** 1-bobning sarlavhasi “Aylana akslantirishlarining kombinatorik va topologik nazariyasi va Danjua tengsizligining anoq baholari” bo‘lib, 1.1-1.3-boblarda aylana aklantirishlari nazarisidagi asosiy tushuchalarning dissertatsiyaga ta’aluqli bo’lgan qismlari to‘liq qayta ko‘rib chiqdilgan. Bunda aylana ta’rifi, aylanada yo‘nalish tushunchasi va aylana akslantirishining asosiy xossalari kabi asosiy elementlarni qayta ko‘rib chiqishni o‘z ichiga oladi. Shunungdek, Puankare tomonidan kiritilgan hamda kombinatorika nazariyasi bilan bog‘liq burish sonining muhim xossalari keltirilgan. Bundan tashqari burish sonlarining uzluksiz kasrga yoyilmasi va dinamik bo‘linishlar haqidagi tushunchalr keltirilgan. Danjua tengsizligi va uning amaliy ahamitiga e’tibor qaratilgan holda, Danjuaning topologik nazariyasi o‘rganilgan.

1.4-bobda, davriy nuqtaga ega bo‘lmagan ixtiyoriy $C^{1+BV}$ ($C^1$ sinfdan bo’lib hosilasining variatsiyasi chegaralgan) diffeomorfizmning chiziqli burishga topologik ekvivalent bo‘lishi haqidagi Danjua (1932) teoremasining umumlashmalari muhokama qilingan. Ma’lumki, $T$ aylana akslantirishi $C^k(S^1)$ sinfga tegishli diffeomorfizm bo‘ladi, agar uning aniqlovchi funksiyasi $C^k(\mathbb{R})$ sinfga tegishli bo‘lsa. Irratsional $\rho := \rho(T)$ burish songa ega $T$ aylana diffeomorfizmini qaraymiz.

Ushbu $K_n = \max_{\xi} |\log(T^{q_n}(\xi))'| = \|\log(T^{q_n})'\|_0$ belgilashni kiritamiz, bu yerda $T'(\xi), T$ akslantirishning $\xi$ nuqtadagi hosilasi. Endi quyi silliqlikka ega aylana diffeomorfizmlari uchun kuchaytirilgan Danjua tengsizligini tadqiq qilishga o‘tamiz. Aylana diffeomorfizmlari qo‘shmasining quyi silliqlik kriteriyalarini keltirish uchun, Kasnelson & Ornshteynlar [73] tomonidan birinchi bo‘lib kiritilgan quyidagi ta’rifni eslatamiz.

**1-Ta’rif.** *$T$ aylana diffeomorfizmi Kasnelson va Ornshteyn sinfiga (qisqalik* *uchun, KO sinfga) tegishli deb aytamiz, agar* $\log T'$ *absolyut uzluksiz, biror* $p > 1$ *uchun* $T''/T' \in L_p$ *bo'lsa.*

Bizning maqsadimiz $K_n$ ketma-ketlik uchun aniq baho olish. Ushbu $d_n = d_n(T) = \| T^{q_n} - Id \|_0$ belgilashni kiritamiz. 1-bobning asosiy natijasi quyidagidan iborat.

**2-Teorema.** *Aytaylik,* $T$ *diffeomorfizm Kasnelson va Ornshteyn shartlarini qanoatlantirsin hamda burish soni* $\rho$ *irratsional bo'lsin. U holda shunday* $C = C(T) > 0$ *o'zgarmas va kvadratlari yig'indisi yaqinlashuvchi bo'lgan shunday* $\tau_n = \tau_n(T)$ *ketma-ketlik mavjud bo'lib, quyidagi munosabat o'rinli bo'ladi:*

$$K_n \le C \sum_{k=1}^{n} \frac{d_n}{d_k} \cdot \tau_k .$$

**2-bobning asosiy natijalari.** 2-bobning sarlavhasi "Quyi silliqlikga ega aylana diffeomorfizmlarining chiziqlilanishi" bo'lib, bunda aylana diffeomorfizmlarini chiziqlilashtirishning murakkab masalasi o'rganildi. Chiziqlilashtirish muammosi aylana diffeomorfizmi va aylanada chiziqli burish o'rtasidagi qo'shma akslantirishning silliqligini anglatadi. 2.2 - 2.5 paragraflarda biz aylana diffeomorfizmlari oilasi $T_t = T + t$ va Danjua tengsizliklari hamda dinamik bo'linish intervallari uzunliklari nisbati uchun universal baholar olindi. Bundan tashqari, dinamik bo'linish intervallari kasr buzilishi (ratio distortion) hamda aylanib kelgan kasr buzilishlari (cross-ratio distortion) uchun aniq baholar olindi. Aytaylik, $\alpha \in (0, 1)$ irratsional son bo'lsin. Berilgan $\alpha$ sonning ushbu

$$\alpha = 1/(a_1 + 1/(a_2 + \cdots)) := [a_1, a_2, ..., a_s, ...)$$

uzluksiz kasrga yoyilmasidan foydalanamiz. Musbat $(a_s,\ s \ge 1)$ sonlar ketma-ketligi *qismiy nisbatlar* deyiladi hamda har bir $\alpha$ uchun yagona ravishda aniqlanadi. Endi berilgan ikkita natural sonlar ketma-ketligi orqali irratsional sonlarning qism to'plamini aniqlaymiz. Aytaylik, $(i_n)$ natural sonlarning qat'iy o'suvchi ketma-ketligi, $(v_n)$ natural sonlarning chegaralanmagan ketma-ketligi, va $M$ esa natural son bo'lsin. Ixtiyoriy $s \in \mathbb{N} \setminus \{i_n,\ n = 1, 2, ...\}$ uchun $a_{i_n} \le v_n$ va $a_s \le M$ bo'ladigan barcha irratsional $\alpha = [a_1, a_2, ..., a_s, ...)$ sonlar to'plamini $I(i_n, v_n, M)$ orqali belgilaymiz va ushbu

$$I(i_n, v_n) = \bigcup_{M=1}^{\infty} I(i_n, v_n, M)$$

to'plamni aniqlaymiz. Quyidagi teorema 2-bobning dastlabki asosiy natijasi hisoblanadi.

**3-Teorema.** *Aytaylik, T Kasnelson va Ornshteyn shartlarini qanoatlantiruvchi aylana diffeomorfizmi bo'lsin. U holda ixtiyoriy chegaralanmagan natural sonlar ketma-ketligi* $(v_n)$ *uchun, shunday o'suvchi* $i_n = i_n(T, v_n)$ *natural sonlar ketma-ketligi mavjudki, barcha* $\hat{\rho} \in I(i_n, v_n)$ *lar uchun* $T_{t_0}$ *va* $T_{\hat{\rho}}$ *orasidagi h qo'shma gomeomorfizm va uning teskarisi* $h^{-1}$ *absolyut uzluksiz va* $h', (h^{-1})' \in L_2$ *bo'ladi. Bu* *yerda* $t_0 = t_0(T, \hat{\rho})$, $t$ *parametrning* $\rho(T_{t_0}) = \hat{\rho}$ *bo'ladigan yagona qiymati.*

Endi $\Delta_\gamma(0) = 0$ va

$$\Delta_\gamma(x) = \frac{x}{(\log \frac{1}{x})^\gamma}, \quad \text{bunda } 0 < x < 1 \text{ va } \gamma > 0$$

shartlarni qanoatlantiruvchi bir-parametrli $\Delta_\gamma : (0,1) \to [0, \infty)$ funksiyalar oilasini qaraylik. $\Delta^2 T'(\xi, \tau)$ orqali $T'$ ning ikkinchi tartibli simmetrik ayirmasini belgilaymiz, ya'ni

$$\Delta^2 T'(\xi, \tau) = T'(\xi + \tau) + T'(\xi - \tau) - 2T'(\xi),$$

bu yerda $\xi \in S^1$ va $\tau \in [0, 1/2]$. Faraz qilaylik, shunday $C > 0$ o'zgarmas mavjud bo'lib, quyidagi tengsizlik o'rinli bo'lsin:

$$\| \Delta^2 T'(\cdot, \tau) \|_{C^\infty(S^1)} \leq C \Delta_\gamma(\tau). \qquad (1)$$

$Z_{\Delta_\gamma}$ orqali $T'$ hosilasi (1) shartni qanoatlantiruvchi $T$ aylana diffeomorfizmlari sinfini belgilaymiz. Quyidagi teorema bu bobdagi keyingi asosiy natijamiz hisoblanadi.

**4-Teorema.** *Aytaylik,* $T \in Z_{\Delta_\gamma}$ *burish soni* $\rho$ *irratsional bo'lgan aylana diffeomorfizmi bo'lib,* $\gamma \in (\frac{1}{2}, 1]$ *bo'lsin. Faraz qilaylik, biror* $\alpha \in (0, \gamma - \frac{1}{2})$ *uchun* $\rho$ *ning qismiy nisbatlari uchun* $a_n \leq Cn^\alpha$, $C > 0$ *bo'lsin. U holda* $T$ *va* $T_\rho$ *orasidagi* $h$ *qo'shma gomeomorfizm va uning teskarisi* $h^{-1}$ *absolyut uzluksiz va* $h', (h^{-1})' \in L_2$ *bo'ladi.*

Endi $C^1$-silliq chiziqlilashtirish holini qaraymiz. Yana $Z_{\Delta_\gamma}$ Zygmund sinfini qaraymiz, biroq $\gamma > 1$ bo'lsin deb faraz qilamiz. Quyidagi teorema bu bobdagi keyingi asosiy natijamiz hisoblanadi.

**5-Teorema.** *Aytaylik,* $T \in Z_{\Delta_\gamma}$ *burish soni* $\rho$ *irratsional bo'lgan aylana diffeomorfizmi bo'lib,* $\gamma > 1$ *bo'lsin. Faraz qilaylik, biror* $\alpha \in (0, \gamma - 1)$ *uchun* $\rho$ *ning qismiy nisbatlari uchun* $a_n \leq Cn^\alpha$, $C > 0$ *bo'lsin. U holda* $T$ *va* $T_\rho$ *orasidagi* $h$ *qo'shma gomeomorfizm va uning* $h^{-1}$ *teskarisi* $C^1$ *diffeomorfizm bo'ladi.*

**3-bobning asosiy natijalari.** 3-bobning sarlavhasi "Maxsuslikka ega aylana diffeomorfizmlari" bo'lib, sinish tipidagi maxsuslikka ega aylana gomeomorfizmlarini tadqiq qilishga bag'ishlanadi.

**6-Ta'rif.** $x_0$ *nuqta* $T$ *aylana akslantirishining sinish nuqtasi deyiladi, agar bir tomonlama hosilalar* $T'(x_0 \pm 0)$ *mavjud, musbat va bir-biriga teng bo'lmasa. Ushbu* $T'(x_0 - 0)/T'(x_0 + 0)$ *nisbatga* $T$ *gomeomorfizmning sinish kattaligi (sakrash nisbati) deyiladi.*

Bu bobda Erman tomonidan kiritilgan sanoqli sondagi sinishga ega aylana gomeomorfizmlari uchun $P$-gomeomorfizm tushunchasi kiritiladi. Ushbu bob $P$-gomeomorfizmlar uchun qat'iy natijalar bayoni bilan boshlanadi hamda bunday akslantirishlarning ergodikligi ko‘rsatiladi. Shundang so‘ng, $P$-gomeomorfizmlar va chiziqli burish orasidagi qo‘shmaning silliqligi uchun turli kriteriyalar keltiriladi.

Aytaylik, $T_f$ va $T_g$ lar bir xil $\rho$ irratsional burishga ega $P$-gomeomorfizmlar bo‘lsin. Erman teoremasiga ko‘ra, $T_f$ va $T_g$ larni bog‘lovchi $T_h : S^1 \to S^1$ qo‘shma akslantirish mavjud bo‘ladi. Ta’kidlab o‘tamizki, agar $T_\varphi$ berilgan aylana gomeomorfizmi bo‘lsa, u holda $\hat{\varphi}_n = \varphi^n - Id$ funksiya barcha $n = 0,1,2,...$ lar uchun $\mathbb{Z}$ davriy funksiya bo‘ladi. Shu sababli bu funksiyalarni aylana akslantirishlari sifatida qarashimiz mumkin. Faraz qilaylie $f, g$ va $h$ lar mos ravishda $T_f, T_g$ va $T_h$ gomeomorfizmlarning aniqlovchi funksiyalari bo‘lsin. Bu aniqlovchi funksiyalardan foydalanib, $H_n : \mathbb{R} \to \mathbb{R}$ funksiyalar ketma-ketligini quyidagicha aniqlaymiz:

$$H_n := H_n(f, g, h) = \frac{1}{n} \sum_{i=0}^{n-1} \left( f^i - \hat{g}_i \circ h \right).$$

Quyidagi teorema 3-bobning dastlabki asosiy natijasi hisoblanadi.

**7-Teorema.** *Aytaylik, $T_f$ va $T_g$ lar bir xil irratsional burish sonli $P$-gomeomorfizmlar va $T_h$ ular orasidagi qo‘shma akslantirish bo‘lsin. U holda yuqoridagi belgilashlar asosida quyidagi tasdiqlar o‘rinli:*

*(a)* $\lim_{n\to\infty} \| H_n - h \|_{C^0} = 0$;

*(b)* $\max_{x\in\mathbb{R}} \left( H_n(x) - x \right) - \min_{x\in\mathbb{R}} \left( H_n(x) - x \right) < 1.$

Endi qo‘shma akslantirishning $\beta$-Gyolder uzluksizligi muhokama qilamiz. $\varphi$ funksiyaning $\beta$-Gyolder yarim normasini qo‘yidagicha aniqlaymiz:

$$[\varphi]_\beta := \sup_{x\neq y} \frac{\varphi(x) - \varphi(y)}{|x - y|^\beta}.$$

**8-Ta’rif.** *$C^\beta$-Gyolder fazosi deb ushbu*

$$\| \varphi \|_{C^\beta} = \| \varphi \|_{C^0} + [\varphi]_\beta$$

*norma chekli bo‘ladigan barcha $\varphi \in C^0$ funksiyalardan tashkil topgan fazoni belgilaymiz.*

Shuni ta’kidlaymizki, $\beta = 1$ bo‘lgan xususiy xolda yuqoridagi fazo ushbu

$$\| \varphi \|_{Lip} = \| \varphi \|_{C^0} + [\varphi]_{Lip}$$

Lipshis normali Lipshis funksiyalari fazosi deyiladi va bu fazoni $\mathrm{Lip}(S^1)$ orqali belgilanadi.

**9-Ta’rif.** *$T_\eta$ aylana gomeomorfizmi $C^\beta(S^1)$ sinfga tegishli deb aytamiz, agar $\eta \in C^\beta$ bo‘lsa.*

Quyidagi teorema bu bobdagi keyingi asosiy natijamiz hisoblanadi.

**10-Teorema.** *Aytaylik, $T_f$ va $T_g$ lar bir xil irratsional burish sonli $P$-gomeomorfizmlar va $T_h$ ular orasidagi qo‘shma akslantirish bo‘lsin. Agar*

$$\sup_{n\in\mathbb{N}}\left[\hat{f}_n-\hat{g}_n\circ h\right]_\beta<+\infty$$

*bo'lsa, u holda* $T_h\in C^\beta(S^1)$.

Aytaylik, $T_f$ va $T_g$ lar bir xil $\rho$ irratsional soniga ega $P$-gomeomorfizmlar bo'lsin. $T_f$ va $T_g$ gomeomorfizmlarga mos $P_n(\xi,T_f)=P_n(T_f)$ va $P_n(T_h(\xi),T_g)=P_n(T_g)$ dinamik bo'linishlarni qaraymiz. $\Delta^n$ orqali $P_n(T_g)$ bo'linishning intervallarini belgilaymiz. $T_h$ funksiya $T_f$ va $T_g$ lar orasidagi qo'shma akslantirish bo'lgani uchun, ixtiyoriy $\Delta^n\in P_n(T_f)$ uchun $T_h(\Delta^n)=\Delta^n$ . Bizning keyingi asosiy natijamiz qo'yidagidan iborat.

**11-Teorema.** *Faraz qilaylik, $T_f$ va $T_g$ lar bir xil irratsional burish sonli $P$-gomeomorfizmlar bo'lib, burish sonining uzluksiz kasrga yoyilmasi $\rho_1=\rho_2=[k_1,k_2,...,k_n,...]$ bo'lsin. Agar $\sum_{n=1}^{\infty}\tau_n^2<\infty$ bo'ladigan shunday $\{\tau_n\}$ ketma-ketlik mavjud bo'lib, barcha $n\ge 1$ lar va har bir o'zaro qo'shni $\Delta_1^n,\Delta_2^n\in P_n(T_f)$ intervallar juftligi uchun*

$$\left|\frac{|\Delta_1|}{|\Delta_2|}-\frac{|\Delta_1|}{|\Delta_2|}\right|\le\tau_n$$

*bo'lsin. U holda $T_f$ va $T_g$ orasidagi $T_h$ qo'shma akslantirish absolyut uzluksiz funksiya bo'ladi.*

Endi qo'shma akslantirishning absolyut uzluksizligi uchun zaruriy shartni keltiramiz. Bizning keyingi asosiy natijamiz qo'yidagidan iborat.

**12-Teorema.** *Aytaylik, $T_f$ va $T_g$ lar bir xil irratsional burish sonli $P$-gomeomorfizmlar bo'lsin. Agar $T_h$ qo'shma akslantirish absolyut uzluksiz funksiya bo'lsa, u holda barcha $\delta>0$ lar uchun*

$$\lim_{n\to\infty}\ell\left(\tilde{x}:\ \tilde{x}\in S^1, |\log DT_g^{q_n}(T_h(\tilde{x}))-\log DT_f^{q_n}(\tilde{x})|\ge\delta\right)=0.$$

Qo'shma akslantirishning Lipshis uzluksizligi. Aytaylik, $T_f$ va $T_g$ lar bir xil $\rho=\rho(T_f)=\rho(T_g)$ irratsional burish sonli $P$-gomeomorfizmlar va $T_h$ ular orasidagi qo'shma akslantirish bo'lsin. Bu bo'limda $T_h$ qo'shma akslantirishning Lipshis uzluksizligi uchun yetarli va zaruriy shartlarni keltiramiz. Quyidagi tasdiqdan boshlaymiz. Aytaylik, $T_\Gamma$ aylana gomeomorfizmi bo'lsin. Agar $T_\Gamma$ —Lipshis uzluksiz bo'lsa, u holda

$$[\Gamma]_{Lip}=\sup_{x\ne y}\frac{|\Gamma(x)-\Gamma(y)|}{|x-y|}<+\infty.$$

Bu tasdiqdan va Lebeg teoremasidan deyarli hamma joyda $DT_\Gamma(x)$ mavjud va $|DT_\Gamma|\le[\Gamma]_{Lip}$ bo'lishi kelib chiqadi. Oxirgi munosabatlar $DT_\Gamma\in L^\infty(S^1)$ va $\|DT_\Gamma\|_{L^\infty}=[\Gamma]_{Lip}$ bo'lishini bildiradi, bu yerda $\|\cdot\|_{L^\infty}$ - $L^\infty(S^1)$ fazodagi norma.

Qo‘shma akslantirishning Lipshis uzluksizligi uchun zaruriy shartni keltiramiz. Bizning keyingi asosiy natijamiz qo‘yidagidan iborat.

**13-Teorema.** *Aytaylik, $T_f$ va $T_g$ lar bir xil $\rho$ irratsional burish sonli $P$-gomeomorfizmlar bo‘lsin. Agar $T_h \in Lip(S^1)$ bo‘lsa, u holda*

$$\sup_{n\in\mathbb{N}} \| \log Df^n - \log Dg^n(h) \|_{L^\infty} < +\infty .$$

Endi qo‘shma akslantirishning Lipshis uzluksizligi uchun yetarli shartni keltiramiz. Bizning keyingi asosiy natijamiz qo‘yidagidan iborat.

**14-Teorema.** *Aytaylik, $T_f$ va $T_g$ lar bir xil $\rho$ irratsional burish sonli $P$-gomeomorfizmlar bo‘lsin. Faraz qilaylik, $T_h$ absolyut uzluksiz va*

$$\sup_{n\in\mathbb{N}} \| D f_n - D(g_n \circ h) \|_{L^\infty} < +\infty$$

*bo‘lsin. U holda $T_h \in Lip(S^1)$.*

Bu bo‘limda ikkita sinish ekvivalent $P$-gomeomorfizmlar orasidagi qo‘shma gomeomorfizmning $C^1$-silliqligi uchun zarur va yetarli shartni keltiramiz. Aytaylik, $T_f$ va $T_g$ lar bir xil $\rho = \rho(T_f) = \rho(T_g)$ irratsional burish sonli $P$-gomeomorfizmlar va $T_h$ ular orasidagi qo‘shma akslantirish bo‘lsin. Quyidagi ta’rifni keltiramiz.

**15-Ta’rif.** *$T_f$ va $T_g$ $P$-gomeomorfizmlar sinish ekvivalent deyiladi, agar*

(1) $T_h(BP(T_f)) = BP(T_g)$;

(2) *barcha $b \in BP(T_f)$ lar uchun $\sigma_{T_g}(T_h(b)) = \sigma_{T_f}(b)$, bu yerda $BP(T_f)$ va $BP(T_g)$ lar mos ravishda $T_f$ va $T_g$ larning sinish nuqtalari to‘plamidir.*

Endi ikkita sinish ekvivalent aylana gomeomorfizmlari orasidagi qo‘shma gomeomorfizmning $C^1$-silliqligi uchun kriteriyani keltiramiz.

**16-Teorema.** *Aytaylik, $T_f$ va $T_g$ lar bir xil $\rho$ irratsional burish sonli sinish ekvivalent $P$-gomeomorfizmlar bo‘lsin. $T_h$ qo‘shma akslantirish $C^1$-diffeomorfizm bo‘lishi uchun*

$$\sup_{n\in\mathbb{N}} \| \log Df^n - \log Dg^n(h) \|_{L^\infty} < +\infty$$

*bo‘lishi zarur va yetarli.*

Quyida biz qo‘shma akslantirishning silliqligi uchun ko‘proq mos keladigan shartlarni taqdim etamiz. Bizning keyingi asosiy natijamiz quyidagicha

**17-Teorema.** *Aytaylik, $T_f$ va $T_g$ lar bir xil $\rho$ irratsional burish soniga ega $P$-gomeomorfizmlar bo‘lsin. Agar $\sum_{n=1}^{\infty} \tau_n^2 < \infty$ bo‘ladigan shunday $\{\tau_n\}$ ketma-ketlik mavjud bo‘lib, barcha $n \geq 1$ lar va har bir o‘zaro qo‘shni $\Delta_1, \Delta_2 \in P_n(T_f)$ yoki $\Delta_1, \Delta_2 \subset \Delta \in P_{n-1}(T_f)$ intervallar juftligi uchun*

$$\left| \log \frac{|\Delta_1|}{|\Delta_2|} - \log \frac{|\Delta_1|}{|\Delta_2|} \right| \leq \tau_n$$

*bo'lsa, u holda* $T_f$ *va* $T_g$ *lar orasidagi* $T_h$ *qo'shma gomeomorfizm* $C^1$ *- silliq bo'ladi, bu yerda* $\Delta_i = T_h(\Delta_i)$, $i = 1,2$.

